




Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2024- yil uchun Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda – YAHM) hajmi joriy narxlarda 45 658,5 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2023- yil bilan taqqoslaganda 6,3 % ga o'sdi.

YAHM deflyator indeksi 2023- yilga nisbatan 109,7 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMning shakllanishida Qoraqalpog'iston Respublikasining qo'shgan hissasi 3,1 % ga yetdi.

## 2024- yil uchun Qoraqalpog'iston Respublikasida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot



- YAHM o'sish sur'ati
- YAHM hajmi
- YAHM deflyator indeksi
- YAIMga qo'shgan hissasi

## 2023-2024- yillar uchun iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari

	Mlrd. so'm		O'sish sur'atlari, o'tgan yilga nisbatan % da
	2023- yil	2024- yil	
<b>I. YAHM, jami</b>	<b>39 166,2</b>	<b>45 658,5</b>	<b>106,3</b>
<i>shu jumladan:</i>			
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	37 583,8	44 444,2	106,3
mahsulotlarga sof soliqlar	1 582,4	1 214,3	106,4
<b>II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati</b>	<b>37 583,8</b>	<b>44 444,2</b>	<b>106,3</b>
<b>qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi</b>	<b>9 479,9</b>	<b>10 445,7</b>	<b>103,6</b>
<b>sanoat (qurilishni qo'shgan holda)</b>	<b>10 643,7</b>	<b>12 661,0</b>	<b>107,0</b>
sanoat	7 523,4	9 100,9	106,8
qurilish	3 120,3	3 560,1	107,4
<b>xizmatlar</b>	<b>17 460,2</b>	<b>21 337,5</b>	<b>107,3</b>
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	6 322,5	7 952,2	112,8
tashish va saqlash, axborot va aloqa	2 299,0	2 972,2	108,4
boshqa xizmat tarmoqlari	8 838,7	10 413,1	103,1

Quyida keltirilgan infografikadan ko'rinib turganidek, aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 22 645,8 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 4,9 % ga yuqoridir.

## 2023-2024- yillar uchun aholi jon boshiga hisoblangan YAHM hajmi (ming so'mda)



## 2023-2024- yillar uchun aholi jon boshiga hisoblangan YAHMning o'sish sur'atlari (o'tgan yilga nisbatan % hisobida)





## 2023-2024- yillar uchun iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

	2023- yil	2024- yil
<b>I. YAHM, jami</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>		
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	96,0	97,3
mahsulotlarga sof soliqlar	4,0	2,7
<b>II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<b>qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi</b>	<b>25,2</b>	<b>23,5</b>
<b>sanoat (qurilishni qo'shgan holda)</b>	<b>28,3</b>	<b>28,5</b>
sanoat	20,0	20,5
qurilish	8,3	8,0
<b>xizmatlar</b>	<b>46,5</b>	<b>48,0</b>
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	16,8	17,9
tashish va saqlash, axborot va aloqa	6,1	6,7
boshqa xizmat tarmoqlari	23,6	23,4




2024- yil uchun hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 97,3 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 2,7 % ini tashkil etdi.


Hisobot davrida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligining YAHMning tarmoqlar bo‘yicha tarkibidagi ulushi 23,5 % ni, sanoat tarmog‘i 20,5 % ni, qurilish 8,0 % ni va xizmatlar sohasi 48,0 % ni tashkil qildi.

## 2023-2024- yillar uchun iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

2023- yil



2024- yil




● Yalpi qo‘shilgan qiymat

● Mahsulotlarga sof soliqlar

YAHM o'sishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'i 0,9 f.p. (2023- yilda – 0,8 f.p.), sanoat tarmog'i – 1,3 f.p. (2023- yilda – salbiy 0,2 f.p.), qurilish tarmog'i – 0,6 f.p. (2023- yilda – salbiy 0,2 f.p.) va xizmat ko'rsatish sohasi – 3,2 f.p. (2023- yilda – 1,3 f.p.) ijobiy hissa qo'shdi.


Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YAHM 0,3 f.p. (2023- yilda – 0,1 f.p.)ga ko'paydi.

## 2024- yil uchun YAHM o'sishida tarmoqlarning hissasi (jamiga nisbatan % da)




2024- yilda YAHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 103,6 % (YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 23,5 %), sanoatda – 106,8 % (20,5 %), qurilishda – 107,4 % (8,0 %), xizmatlar sohasida – 107,3 % ni (48,0 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 112,8 % (17,9 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 108,4 % (6,7 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 103,1 % dan (23,4 %) iborat bo'ldi.

## 2023-2024- yillar uchun YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari (o'tgan yilga nisbatan % da)



2024- yilda YAHM deflyatori indeksi 2023- yildagi narxlarga nisbatan 109,7 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari sanoat tarmog'ida – 113,2 % va xizmatlar sohasida – 113,9 % qayd etildi.

## 2023-2024- yillar uchun YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi (o'tgan yilga nisbatan % da)





2024- yil uchun kichik tadbirkorlik 29 249,6 mlrd. so‘mni tashkil etdi (2023- yilda – 24 283,4 mlrd. so‘m). YAHMdagi ulushi 65,8 % ni (2023- yilda – 64,6 %) tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining o‘tgan yilning mos davriga nisbatan oshishi yirik korxonalar ulushining pasayishi bilan bog‘liq.

## 2023-2024- yillar uchun kichik biznesning hajmi va YAHMdagi ulushi (jamiga nisbatan %da)

Hajmi, mlrd. so‘m

Ulushi, % da

2023- yil

24 283,4

64,6 %

2024- yil

29 249,6

65,8 %

